

**BANK AKTIVLARI RENTABELLIGINI OSHIRISHNING XORIJ
TAJRIBALARI**

Ziyodullaev Sodiqjon Mamadillaevich

Termiz davlat universiteti

ziyodullaevs@tersu.uz

Annotatsiya: Bank aktivlari rentabelligiga baho berishda aktivlarning daromadlilik darajasiga baho berish muhim o‘rin tutadi. O‘z navbatida, xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari aktivlarining daromadlilikiga baho berishda bir qancha metodikalardan foydalaniladi. Maqolada ana shu metodikalardan bir qanchasini ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Tijorat banklari, aktivlarning rentabellik darajasi, daromadlilik darajasi, reyting, CAMELS, risk, bank foydasi, qimmatli qog‘ozlar.

Tijorat banklari aktivlarining rentabelligiga baho berishda aktivlarning daromadlilik darajasiga baho berish muhim o‘rin tutadi. O‘z navbatida, xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari aktivlarining daromadlilikiga baho berishda aktivlarning daromadlilik darajasiga baho berish muhim o‘rin tutadi. O‘z navbatida, xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari aktivlarining daromadlilikiga baho berishda “CAMELS” reyting tizimidagi metodikadan keng foydalaniladi (1-jadval).

1-jadval

“CAMELS” reyting tizimida tijorat banklarining daromadlar bo‘yicha reytingi¹

Reyting	Asosiy mezonlar
1 - kuchli	Daromadlar barqaror va operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini ta‘minlash va zaxiralarni shakllantirish uchun, daromadlarning sifati, miqdori va dinamikasiga ta‘sir qiluvchi aktivlarning sifati, o‘sishi va boshqa omillarni hisobga olgan holda, yetarlidir.
2- qoniqarli	Daromadlar qoniqarli hisoblanadi. Ular operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini ta‘minlash va zaxiralarni shakllantirish uchun yetarli. Ammo, bank daromadlarni qayd etilgan omillar ta‘sirida kamayish ehtimoli mavjud.

¹ Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

3 - oʻrta	Daromadlar yaxshilanishi kerak va ular operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini taʼminlash va zaxiralarni shakllantirish uchun, daromadlarning sifati, miqdori va dinamikasiga taʼsir qiluvchi aktivlarning sifati, oʻsishi va boshqa omillarni hisobga olgan holda, yetarli emas.
4 - chegaraviy	Daromadlar yetarli emas, ular operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini taʼminlash va zaxiralarni shakllantirishni zarur darajada taʼminlay olmaydi. Reytingning ushbu darajasini olgan tijorat banklari uchun foyda va sof foizli marjaning beqaror tebranishi, sezilarli salbiy tendensiyalarning mavjudligi, nominal va beqaror daromadlar, davriy zararlar va daromadlarning oldingi yillarga nisbatan kamayishi xos.
5 - qoniqarsiz	Daromadlar yetarli emas. Tijorat banki sezilarli darajada zarar koʻrayotganligi sababli kapitalining yoʻqotilishi yuz bermoqda va buning natijasida uning moliyaviy barqarorligi xavf ostida qolmoqda.

1-jadval maʼlumotlaridan koʻrinadiki, “CAMELS” reyting tizimi doirasida banklarning daromadlarini baholashda tijorat banklariga beshta reyting bahosi berilmoqda. Bunda eng yuqori reytingga (1) ega boʻlgan banklarda daromadlarning barqarorligi va ularni operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini taʼminlash va zaxiralarni shakllantirish uchun yetarliligi asosiy mezonlar sifatida olinmoqda. Daromadlari boʻyicha qoniqarsiz reytingga (5) ega boʻlgan banklarda daromadlar yetarli emas va koʻrilayotgan zararlar miqdori katta boʻlganligi sababli kapitalning kamayishi yuz beradi.

2-jadval

Deutsche Bank da (Germaniya) sof foizli daromad va sof foyda miqdori, mln. yevro²

Koʻrsat kichlar	2018	2019	2020	2021
Sof foizli	13316	13749	11526	11125


² Annual Reports. Consolidated Balance Sheet. Consolidated Statement of income. www.db.com (Deutsche Bank) internet-sayti maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

daromad				
Sof	624	0	341	251
foyda				

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Deutsche Bank da sof foizli daromad miqdori 2019 yilda 2018 yilga nisbatan ko'paygan. Ammo, 2021 yilda sof foizli daromad miqdori 2020 yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan. Deutsche Bank da sof foyda miqdori 2019 yilda 2018 yilga nisbatan keskin kamaygan. Ammo, 2021 yilda sof foyda miqdori 2020 yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan.

Deutsche Bankda 2021 yilda 2020 yilga nisbatan sof foyda miqdorining kamayganligi mazkur davrda sof foizli daromad miqdorining kamayganligi bilan izohlanadi va ushbu holat bankning moliyaviy mustahkamligini oshirish borasida salbiy holat hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, Deutsche Bankda zaxira ajratmalarining haqiqatdagi darajasi uning me'yoriy darajasidan (1,0%) past ekanligi uning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.




1-rasm. Bank of Americada kreditlarning daromadlilik, foizda³

1-rasmida keltirilgan ma'lumotlardan aniq ko'rish mumkinki, Bank of America tomonidan sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning daromadlilik 2017-2021 yillarda sezilarli darajada o'zgarishdan, barqaror darajada qolgan. Masalan, 2021 yilda kreditlarning daromadlilik darajasi 2020 yilga nisbatan sezilarsiz darajada, ya'ni 0,4 foizli punktga pasaygan. 2020 yilda esa, kreditlarning daromadlilik darajasi 2019 yilga nisbatan 0,5 foizli punktga oshgan.

³ Рaсм муаллиф томонидан Bank of America банкининг 2017-2021 йиллар якуни бўйича эълон қилинган йиллик ҳисоботи маълумотлари асосида (www.bankofamerica.com) тузилган.

Tahlil natijalari ko'rsatdiki, Bank of Americaning lizing shartnomalari summasining umumiy hajmida eng yuqori salmoqni foydalanish huquqi lizingi egallaydi.

Shuningdek, Bank of Americaning lizing kreditlari hajmida o'zgaruvchan lizing kreditlari nisbatan kichik salmoqni egallaydi.



2-rasm. Doychebank (GFR) va Paribas bankda (Fransiya) sanoat korxonalariga berilgan kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasi, foizda⁴

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Doychebankda 2017-2021 yillarda sanoat korxonalariga berilgan kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasi juda past bo'lgan. Faqat, 2020 yilda ushbu ko'rsatkichning darajasi 2019 yilga nisbatan sezilersiz darajada (0,2 f.p.) oshgan. Mazkur holatlar kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

2-rasm ma'lumotlaridan aniq ko'rish mumkinki, Paribas bankda 2017-2021 yillarda sanoat korxonalariga berilgan kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasi juda past va barqaror bo'lgan. Bu esa, kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Tahlil natijalari ko'rsatdiki, 2017-2021 yillarda Doychebank aktivlarining umumiy hajmida kreditlar va qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa, banklarni kreditlash instituti ekanligi va qimmatli qog'ozlar bozorining faol professional ishtirokchisi ekanligi bilan izohlanadi.

Tijorat banklari uchun vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini Markaziy bankning depozit hisobarqamlariga joylashtirish risk darajasi past bo'lgan aktiv

4

operatsiya hisoblanadi. Chunki, Markaziy bankning jalb qilingan depozitlarni qaytara olmay qolish ehtimoli juda past. Ammo, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda tijorat banklarining rolini oshirish nuqtai - nazaridan mazkur depozitlar hajmining oshishi salbiy holat hisoblanadi. Buning sababi shundaki, tijorat banklari tomonidan Markaziy bankda deposit sifatida joylashtiriladigan pul mablag'lari miqdorining ko'payishi milliy iqtisodiyotga banklar tomonidan yo'naltiriladigan kreditlar miqdorining va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning qimmatli qog'ozlariga qilinayotgan investitsiyalar miqdorining kamayishiga olib keladi.

Tahlil natijalari ko'rsatdiki, 2017-2021 yillarda Doychebank tomonidan sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning daromadlilik darajasini o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Buning ustiga, mazkur davr mobaynida kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi past bo'lgan. Bu esa, tasniflangan kreditlar tarkibini yaxshi ekanligidan dalolat beradi. Buning sababi shundaki, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari miqdorining ortishi bevosita tasniflangan kreditlar tarkibida yuz beradigan o'zgarishlarga bog'liq.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda bank tizimining rivojlanganligi iqtisodiyotning real sektori korxonalarining moliyalashtirish manbalariga bo'lgan talablarini qondirish imkonini beradi. Xususan, bank tizimining rivojlanganligi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kreditlarga, shu jumladan investitsion kreditlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Biroq, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'zi ham kreditni qaytara oladigan darajada to'lovga qobillikka ega bo'lishi zarur. Yuqori likvidli garovga ega bo'lish degani uning to'lovga qobil degani emas.

Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar tijorat banklarining muhim daromad manbai bo'lish bilan birga, ularning likvidligini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Korporativ qimmatli qog'ozlarga va hosilaviy qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar tijorat banklariga katta miqdorda daromad keltirsa, Hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar tijorat banklarining likvidligini ta'minlash imkonini beradi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning tijorat banklarida sanoat korxonalarini kreditlash jarayonida yuzaga keladigan kredit risklarini boshqarishda asosiy e'tibor kredit risklarini xedjirlashga qaratilmoqda. O'z navbatida, kredit riskini xedjirlashda quyidagi usullardan foydalanilmoqda:

1. Kreditli defoltli svop (*credit default swap*).
2. Kreditli defoltli opsion (*credit default option*).

VOLUME-2, ISSUE-1

3. Kreditli spred otsion (*credit spread option*).

4. Yalpi daromadga svop (*total return swap*).

5. Kreditli notalar (*credit notes*).

Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida zamonaviy portfel nazariyasi muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotiga joriy qilingan.

Natijada:

- muammoli kreditlarning darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning me'yoriy darajalarini ta'minlash talabi banklarning Kredit siyosatida majburiy shart sifatida belgilab qo'yilgan;

- kreditlarning daromadlilik darajasini o'zgarishi bilan kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasining o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradigan modellar joriy qilingan;

- har bir kreditlash shakli bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan mijozlarning bank kreditidan foydalanishning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasi belgilab qo'yilgan.

Amaliyotda, kredit munosabatlarida yuzaga kelayotgan muammolar ko'rsatmoqdaki, majburiyat ijrosini u yoki bu usuli bilan ta'minlanganlik kreditor uchun kreditni undirish bilan bog'liq muammo bartaraf etildi, degani emas. Chunki, ta'minlanganlik tamoyiliga doir tadbirlar banklar tomonidan qanchalik mukammal amalga oshirilgan bo'lmasin, majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, banklar oldida mijoz ta'minotiga munosabat ob'ekti qiymati doirasida garov ob'ektiga nisbatan egalik huquqini olishda muammolar yuzaga kelmoqda. Bu muammolardan biri, majburiyat ijrosini ta'minotga qaratish jarayonida sud qarorini olish bilan bog'liq muammodir. Bu jarayon uzoq davom etishi, ortiqcha ovoragarchiliklar bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarning mavjudligi bilan muammolar tug'dirmoqda. Shuningdek, uchinchi shaxslar kafilligini amaliyotda qo'llashda ham qator muammolar mavjud.

3-jadval

Bank of America bankida (AQSh) brutto aktivlar va regulativ kapitalning rentabellik darajalari, foizda⁵

Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021
Brutto aktivlar	0,8	1,2	1,1	0,6	1,0

⁵ Jadval muallif tomonidan www.bankofamerica.com sayti (Annual Report. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Rentabelligi					
Regulyativ kapital rentabelligi	6,8	10,6	10,4	6,6	11,8

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, Bank of America bankida brutto aktivlarning rentabelligi 2021 yilda 2017 yilga nisbatan 0,2 foizli punktga oshgani holda, regulyativ kapitalning rentabelligi 5,0 foizli punktga oshdi.

Bank of America bankida brutto aktivlarning rentabelligini 2021 yilda 2017 yilga nisbatan 0,2 foizli punktga oshganligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- 2021 yilda 2017 yilga nisbatan sof foydaning o'sish sur'ati 75,4 foizni tashkil etgani holda, brutto aktivlarning o'sish sur'ati 38,9 foizni tashkil etdi;
- ushbu davrda bank tomonidan berilgan kreditlarning o'sish sur'ati nisbatan past bo'ldi (4,3 %).

Bank of America bankida regulyativ kapitalning rentabelligini 2021 yilda 2017 yilga nisbatan 0,2 foizli punktga oshganligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- 2021 yilda 2017 yilga nisbatan sof foydaning o'sish sur'ati 75,4 foizni tashkil etgani holda, regulyativ kapitalning o'sish sur'ati atigi 1,1 foizni tashkil etdi;
- mazkur davrda bank sof foydasining yuqori o'sish sur'ati, asosan, foizsiz daromadlarning oshishi va foizsiz xarajatlarning kamayishi hisobiga yuz berdi: 2021 yilda 2017 yilga nisbatan bankning foizsiz daromadlarining miqdori 9,0 foizga oshgani holda, foizsiz xarajatlar miqdori 9,6 foizga kamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.
2. Jadval Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. Concolidated Statement of income. www.db.com (Deutsche Bank) internet-sayti ma'lumotlari.
3. Bank of America bankining 2017-2021 yillar yakuni bo'yicha e'lon qilingan yillik hisoboti ma'lumotlari (www.bankofamerica.com).
4. Doychebank va Paribas bankning 2017-2021 yillar yakuni bo'yicha e'lon qilingan moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari.
5. www.bankofamerica.com sayti (Annual Report. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021) ma'lumotlari.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020 yildagi faoliyati to'g'risida hisobot/www.cbu.uz.